



“ZAMONAVIY JAMIYATDA QIZLARTA'LIMIGA E'TIBOR”

Ahmadiy Gulchehra Jaxongir qizi

Ma'mun Universiteti Filologiya va tillarni
o'qitish, Rus tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

E-mail: afr20072009@gmail.com

Telefon: +998889232504

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- Sentabr 2024 yil

Ma'qullandi: 10- Sentabr 2024 yil

Nashr qilindi: 13- Sentabr 2024 yil

KEY WORDS

Ayol, Sharq ayoli, qizlar kitobi, tarbiya, “Umrbod ta'lim”, zamonaviy jamiyat, kasb.

ABSTRACT

Oliy ta'lim yangi imkoniyatlar, shaxslar va mutaxassislarning o'sishi va rivojlanishining kalitidir. Bilim va ko'nikma asosiy kapitalga aylangan. Bugungi kunda muvaffaqiyatga intilayotgan har bir ayol butun bir e'tiborini ilm olishga qaratishi kerak. Bu nafaqat nufuzli kasblar va yuqori daromadlar uchun eshiklarni ochadi, balki tanqidiy fikrlash, o'ziga ishonch va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi.

Davlat taqdiri hamisha bilimli fuqarolar qo'lida. Bizning olimlarimizni, yozuvchilar va shoirlarimizni, rassomlarimizni, san'atkorlarimizni butun dunyo biladi lekin kam odam ahamiyat beradikibu buyuk shaxslarning salmoqli qismini ayollar tashkil etadi.

(Introduction).

Men har bir ayol o'z qadriyatlarini va intilishlariga muvofiq o'z tanlovini amalga oshirish va rivojlanish huquqiga ega deb o'ylayman va qizlarni ta'lim intilishlaridan voz kechishga majburlash noto'g'ri deb hisoblayman.^[1]

Insoniyat tarixining guvohlik berishicha, jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Ming yillar davomida O'rta Osiyo hududida ayollar hurmat va e'zozda bo'lishgan bo'lsa-da, ammo turli obyektiv va subyektiv omillar bois o'tmish haqidagi ma'lumotlarni ifoda etadigan tarixiy manbalarda “Sharq ayoli o'tmishda qoloq hayot tarzi girdobida umr kechirgan”, degan xulosalar o'rin olgan edi. Shunday tasavvurlarning ildiz otishiga sabab bo'lgan holatlardan biri o'zimizda haqiqiy manzarani tadqiq etishdagi hafsalasizlik hisoblanadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgacha uzoq asrlar davomida ayollarning jamiyatdagi o'rni yetarlicha o'rganilgani yo'q. Turli fan olimlari tomonidan tarixiy qo'lyozma asarlar, moddiy yodgorliklar va boshqa manbalar orqali bu muammoni tadqiq qilishlari bugungi rivojlanish bosqichining dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-sonli “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”^[2]gi qarori, “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturi ham yurtimizda bu masalaning dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi. Chet mamlakatlar ayollarning oliy ma'lumot olish huquqini tan oladilar va buni davlat rivojlanishining muhim elementi deb

¹ Rahima Shomansurova: (Qizlar kitobi). 2016. №. 3. 25-54 bet

biladilar. Biroq ba'zi jamiyatlarda yoki oilalarda ayollarning ro'li bo'yicha an'anaviy, uy sharoitidagi qarashlar mavjud bo'lishi mumkin va ba'zi odamlar oliy ma'lumot ayolni oilasidan chalg'itishi yoki uning o'ziga ishonchi oshib o'z oilasidan o'zini ustun qo'yishi mumkin deb o'ylaydilar va uyidagi ayollariga, qizlariga, opa – singillariga o'qishni ta'qiqlab sen yaxshisi uy yumushlarini qoyillat deb tanbeh beradilar. Albatta, bu qarashlar ko'pincha ularni tashuvchining madaniy, diniy yoki boshqa omillari bilan belgilanadi. Kimlardir ayol kishining rahbar bo'lganining nimasi yaxshi, deyishi mumkin. Bunday savolga javob aniq: nozik hilqat sohibalari ijtimoiy masalalarga ko'proq yurakdan his qilib yondashadi, dilidan o'tkazib qarorlar qabul qiladilar. Ijtimoiy masalalar esa, bu — xalqning dardi, xalqning muammosi, shu kecha-kunduzda uning boshidan o'tayotgan muammolar bilan uzviy bog'liqdir.[²]

Men ishonamanki, oliy ta'lim ayolning o'ziga ham, butun jamiyatga ham ko'p foyda keltirishi mumkin: uning kasbiy qobiliyatini, o'zini o'zi qadrlashini oshirish, shaxsiy rivojlanishiga yordam berish, mustaqillikni ta'minlash va hatto oilaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash. Bundan tashqari, bilimli ayollar ijtimoiy va iqtisodiy hayotga katta hissa qo'shishi mumkin, bu esa davlat rivojiga hissa qo'shadi. Ayolning individual tanlovi va ijtimoiy-madaniy umidlari o'rtasidagi muvozanatni topish muhimdir.[³]

Ta'lim nima uchun kerak? Ta'lim odamlar uchun muhim ro'l o'ynaydi. Bu avvalgi avlodlarning tajribasini yangilariga o'tkazishni osonlashtiradi. Bu insoniyatning rivojlanishiga yordam beradi. Zamonaviy inson hayotida ta'limning ro'lini ortiqcha baholash juda qiyin. Bu vaqtinchalik chorrahaning bir turi: biz kelajakni yaxshiroq qilish uchun o'tmishdagi yutuqlarni o'rganib, bugungi kunda yashaymiz. Oliy ta'lim yangi imkoniyatlar, shaxslar va mutaxassislarining o'sishi va rivojlanishining kalitidir. Bilim va ko'nikma asosiy kapitalga aylangan bugungi dunyoda muvaffaqiyatga intilayotgan ayollar oliy ta'limning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirolmaydi. Bu nafaqat nufuzli kasblar va yuqori daromadlar uchun eshiklarni ochadi, balki tanqidiy fikrlash, o'ziga ishonch va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi.

Oliy ma'lumot qizlarning hayotini qanday o'zgartiradi?

Siz nihoyat qiyin matematik masalani yechganingizda yoki murakkab teoremani tushunganingizda, o'sha tuyg'uni eslaysizmi? Bu tom ma'noda miyangizni o'stirmoqda. Oliy ta'lim aql uchun sport zaliga o'xshaydi va uni yangi chegaralarga olib boradi. Moliyaviy mustaqillik, shisha shiftini buzish. Keling, pul haqida gapiraylik. Bugungi dunyoda moliyaviy mustaqillik nafaqat yoqimli, balki zarurdir. Oliy ma'lumot ko'pincha qizlar uchun bu eshikni ochadigan kalit hisoblanadi. Raqamlar o'zlari uchun gapiradi. Oliy ma'lumot sizning daromad potentsialingizni sezilarli darajada oshiradi. Lekin gap faqat ish haqi haqida emas. Biz tanlash erkinligi haqida gapiramiz - o'zingiz xohlagan joyda yashash, sevimli mashg'ulotlaringiz bilan shug'ullanish, sizga mos kelmaydigan vaziyatlarga "yo'q" deyish.

Butun dunyo olimlar, yozuvchilar va shoirlarni, siyosatchilarni, kosmonavtlarni, rassomlarni, musiqachilarni, o'qituvchilarni ham ziyoli, sabr va matonatli ayollar, ya'ni onalari tarbiya qilishgan.

Ayollarning tenglikka intilishi uzoq tarixga ega. Ko'p asrlar davomida ayollarning asosiy maqsadi uy xo'jaligini boshqarish va davom ettirish bo'lgan. Ayol, oila va kundalik hayotning atributi, va u o'zini uyiga, turmush ortog'iga, farzandlariga bag'ishlashi kerak

² "Taraqqiyot strategiyasi" Markazi

³ Shoumarov G'ayrat Baxromovich — o'zbekistonlik olim, psixologiya fanlari doktori

deb tushunilgan. Endi bu pozitsiya asta-sekinlik bilan eskirmoqda endi zamonaviy jamiyatda ayollarning ro'li o'zgarishining asosiy sabablaridan biri bu ayollarning ta'limiga bo'lgan munosabatning o'zgarishi va keyinchalik ma'lumotli ayollar sonining ko'payishidir. Shunday qilib, mamlakatimizning ayollari tobora rivojlanmoqdalar, va aynan ayollar uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratilgan. Hozirda ko'plab ka'm ta'minlangan ayollar o'qishlari uchun kontrakt pullari qoplab berilmoqda, magistraturaga qabul qilingan hamma ayollarning kontrakt pullari qoplab berilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va metodologiya (Literature review).

Ayollar savoli va ayollar ta'limi muammolari, birinchi navbatda, mo'ljallangan ommaviy axborot vositalarida ko'tarildi. "Syuyumbike" jurnalida turli mavzularda munozaralar bo'lib o'tdi, unda ayollar mualliflari, taniqli pedagoglar, o'qituvchilar va maktab rahbarlari ishtirok etdi.

Bog'bo'ston Mukmineva, Mag'ruy Muzaffariya, Kamilya kabi qizlar Muzaffariya, qizlar maktablari faoliyati, kurslar haqida maqolalar chop etildi ayol o'qituvchilar uchun, mamlakatlarda ayollar ta'limining holati to'g'risida, shuningdek nashr etilgan o'quv materiallariva qizlarni tarbiyalash 21-asr boshlariga kelib ayollar ta'limi sohasida tub o'zgarishlar ro'y berdi, oliy o'quv yurtlariga kirayotgan qizlar soni oshdi.

Past daraja ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, Afrika mamlakatlarida va ba'zilarida saqlanib qolgan savodxonlik Arab mamlakatlari yaxshilanishga to'sqinlik qilishda davom etmoqda ayollarning holati. Huquqlar hamon poymol qilinmoqda rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim olish uchun ayollar Afg'oniston, Eron, Iroq va boshqa davlatlarda ancha achinarli ahvol kuzatiladi. Yuqori darajadagi muammoni hal qilish uchun ayollarning savodsizligi, YUNESKO ushbu muammoni hal qilishga qaratilgan turli dasturlarni ishlab chiqdi: ayollar uchun turli kurslar tashkil etish (tikuvchilik, uy xo'jaligi, trikotaj); amalga oshirish gigiyena, oilaviy hayot, bola parvarishi bo'yicha seminarlar tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Sport sohasida ham O'zbekiston ayollari yuksak o'rinlarni egallab bu yil butun dunyoga mashhur bo'ldilar va ularni Prezidentimizning shaxsan o'zlari qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirladilar. Bugungi kunda sportchi xotin-qizlarimizning jamiyat hayotida tutgan o'rni beqiyos. Jahon arenalarida yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilishida, davlatimiz madhiyasi baralla yangrashida ularning hammunosib hissasi bor. O'zbekistonlik Olimpiya va Osiyo o'yinlari g'oliblari, jahon va qit'a chempionlari deganda ko'z oldimizda Svetlana Babanina, Elvira Saadi, Oksana Chusovitina, Lina Cheryazova, Iroda To'laganova, Saida Mahmudova, Nozima Qayumova va boshqa ko'plab opa-singillarimiz keladi.[4] Nima uchun ta'lim inson hayotida muhim ahamiyatga ega? Ta'lim bo'yicha global hamkorlik (GPE) kengashi raisi Julia Gillard ta'lim hayotni o'zgartirishini tushuntiradi. "Umrbod ta'lim" tushunchasi tobora demokratik, insonparvar, xalqaro va texnologik tus olayotgan ta'limning muhimligining isbotidir. Bu zamonaviy inson uchun ishlaydi, uning hayotini ancha osonlashtiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Bugungi kunda muhtaram Yurtboshimiz ham ayollarga va yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod vakillariga ayniqsa qizlarimizni bilimli va komil inson bo'lib yetishi uchun o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Ilm olgan inson hech qachon kam bo'lmaydi, xayoti davomida yuksak

⁴ Xalq so'zi gazetasi

pog'onalar yuqori cho'qqilarni zabt etadi. Shunday ekan biz zamonaviy tarbiya jaryoniga alohida e'tibor qaratmog'imiz lozim bo'ladi. Buning uchunsa bor kuchimizni ilm olishga sarflamog'imiz kerak bo'ladi.

Bugun qizlarimiz ona bo'ladi, ziyoli onalardan ilmi farzandlar dunyoga keladi.

O'sib kelayotgan farzandlarimiz bizdanda kuchli va bilimli bo'lmog'i lozim, chunki ertangi kunimiz taqdiri bu yosh avlodlamizdir. Bilimni o'tin yorishga emas uni qanday qilib sarflashni o'rganmog'imiz lozim.

O'z oilamdan aytib o'tsam, men ziyolilar oilasining farzandiman va oilam meni o'qishimni qo'llab-quvatlaydi. 9 yil maktab ta'limini olib, so'ngra imtihon bilan UrDU huzuridagi UrDU Akademik Litseyiga qabul qilindim, bir necha til sertifikatlarini qo'lga kiritib va bir qancha rus tili fani olimpiadalari sovrindori bo'ldim. Keyinchalik, Ma'mun Universitetining "Ta'xischi granti" sohibasi bo'ldim va to'rt yilga grant yutib oldim. Albatta, bu nafaqat men, balki otanam uchun ham katta yutuq edi. Aytib o'tishim joizki, Ma'mun Universiteti ham men ka'bi bilimga chanqoq, ilmi qizlarni rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (2018).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risidagi" (2018) 5325-sonli Farmoni. // <https://lex.uz>. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlar va oilani qo'llab quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" (2018) 201-sonli Qarori. // <https://lex.uz>. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
4. Elena Tonchu: "Ayollar va ta'lim" 2010. №. 5-60 betlar.
5. Mey Mask "Rejali ayol", "Baxtli hayot qoidalari" 2005. 216 b. Ayollar o'qisin va rivojlansin.
6. Rahima Shomansurova: (Qizlar kitobi). 2016. №. 3. 25-54 betlar.
7. Lixacheva E.I. Ayollar ta'limi tarixi uchun materiallar: ilm-fan muammosi yoki tushunchalarning ikki baravar ko'payishi? 1999. 100-150-betlar.
8. Mirkarim Osim "Tomaris - o'zbek millatining kuchi".